



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(6)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 472 sahifa,
22-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

“Kitobxonlar klubi” modelining ingliz tili to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning kognitiv kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari.....	10
Madaminova Gulzira Gulamkadirovna	
Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatida suggestiv yondashuvning o‘rni	14
Arolov Davronjon Davlataliyevich	
Akmeologik yondashuv asosida maktabgacha ta‘lim direktor o‘rinbosarlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish	19
Asatullayeva Sitora Dilmurod qizi	
Hozirgi o‘zbek tilida neologizmlarning tarixi va bugungi kun taraqqiyoti.....	22
Bektosheva Mehinbonu Abdumalik qizi	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari bolalarida jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	26
Djurayeva Dilfuza Nuriddin qizi	
Korpus lingvistikasi vositalari yordamida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining til tahlili ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	30
Eshonqulova Sarvinoz Yashinovna	
Talabalarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda sun‘iy intellektning o‘rni va ahamiyati.....	35
Hojiyeva Nasiba Bahodirovna	
Logopedik mashg‘ulotlarni tashkil etish va rejalashtirish moduliga oid mustaqil ta‘lim topshiriqlarini integrativ modellashtirishning innovatsion texnologiyalari.....	39
Ibroximova O‘g‘iloy Inomjon qizi	
Jismoniy tarbiya darslarida ortiqcha vaznli bolalarga differensial yondashuvning ahamiyati	43
Yuldashev Bobirjon Noibjon o‘g‘li	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotida xalq og‘zaki ijodi vositasida bolalarning axloqiy sifatlarini shakllantirishning ahamiyati.....	48
Muradxanova Munisaxon Ikrom qizi	
Bo‘lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini rivojlantirishning psixologik imkoniyatlari	54
Nusratova Mexriniso Baxshilloevna	
Inklyuziv ta‘lim tushunchasi va uning zamonaviy pedagogik paradigmalar tizimidagi o‘rni.....	59
Pulatova Dilfuza Azamkulovna	
Magistrlarda “Imposter sindromi”ni yengish orqali kreativ salohiyatni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari.....	66
Qayumov Baxtiyor Zokirjon o‘g‘li	
Kichik maktab yoshidagi bolalar nutqining fonematik rivojlanishi	70
Qurbonova Sevara Suyunovna	
Mikrobiologiya ta‘limida individual pedagogik texnologiyalarni joriy etish mexanizmlari	74
Raxmatov Oxunjon Soibjonovich	
“Estetik tarbiya”, “kreativ kompetensiya”, “estetik tarbiya mexanizmlari” tushunchalarining konseptual asoslari.....	79
Saidova Feruza Akramovna	
Zamonaviy ta‘lim jarayonida neyropedagogika yordamida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.....	84
Sidiqova Yulduz Sobirovna	
“So‘nggi jadid” Begali Qosimovning ilmiy-pedagogik merosi.....	88
Toxirova Dilshoda Inom qizi	
Ona tili darslarida o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlar ustida ishlash	92
Turg‘unova Nilufar Muxiddin qizi	
Ingliz, golland va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning lingvostatistik xususiyatlari.....	96
Xaydarova Go‘zalxon	



Maktabgacha yoshdagi bolalarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishda yumshoq ko'nikmalarning ahamiyati.....	101
<i>Xolmatova Dilshoda Sherali qizi</i>	
Farzandlarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda oilaning pedagogik imkoniyatlari	105
<i>Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna</i>	
Yoshlarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali sotsial manipulyativ ta'sirlarga psixologik barqarorlikni shakllantirish.....	109
<i>Qosimova Sarvinoz Baxtiyorovna</i>	
O'quvchilarda modellashtirish ko'nikmalarini shakllantirishga ko'maklashadigan faoliyat usullari	114
<i>Abdurazzaqov O'ktam Abduqayumovich</i>	
Dizartriya shakllarining klinik-patogenetik tahlili va differensial diagnostikasi	120
<i>Axmedova V. T.</i>	
Boshlang'ich sinflarda fanlararo yondashuvga asoslangan integrativ topshiriqlar ishlab chiqishning uslubiy asoslari.....	127
<i>Elmurodova Inoyat Abdumutalibovna</i>	
Deviant xulq-atvorli o'smirlar ijtimoiylashuvining psixologik determinantlari.....	132
<i>Elov Ziyodullo Sattorovich</i>	
Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida talabalar o'quv natijalarini baholashning pedagogik modeli.....	138
<i>Ernazarov Mirzohid Yo'ldosh o'g'li</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biokimyo fanini raqamli texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi	145
<i>Mamadaliyeva Zarina Raxmat qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda kognitiv tilshunoslikni joriy etish masalalar	150
<i>Mamatova Gulshan Amankulovna</i>	
Doston musiqiy merosini o'rganishni uslubiy takomillashtirish mazmuni.....	153
<i>Qo'shayev Ilhom Axtamovich, Nasirova Sevinch Ismatovna</i>	
"Elektr yoritish" fanida mustaqil ta'limning zamonaviy shakllari.....	157
<i>Nasretdinova Feruza Nabiyeвна</i>	
Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish	162
<i>Nazarova Dildora Asatovna, Kuchkorova Robiya Shuxrat qizi</i>	
Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni.....	167
<i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i>	
A Methodological Model for Developing Pedagogical Reflection in Pre-Service EFL Teachers.....	172
<i>Rahimberdiyeva Maftuna Rakhimberdi kizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzining kasbiy kompetentlikka ta'siri	177
<i>Raximova Saboxat Qaxramon qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda interaktiv texnologiyalar va faol ta'lim metodlarining samaradorligi	182
<i>Safarova Nigora Nasilloevna</i>	
Maktabgacha ta'lim jarayonida interfaol usullarning mazmuni, turlari va funksional ahamiyati.....	190
<i>Safarova Soliha Ilhomovna</i>	
Talabalarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida diagnostik metodlardan samarali foydalanishning ahamiyati... 196	
<i>Saotmuratova Zebo Yuldash qizi</i>	
Musiqqa ta'limida interfaol metodlardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari.....	200
<i>Saparov Raxim Muratbayevich</i>	
Maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish ijtimoiy zarurat sifatida.....	204
<i>Xolmatova Yodgoroy Baxtiyorjon qizi</i>	
Energetika fanlarini o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik afzalliklari.....	208
<i>Zoxidov Iqboljon Zokirjonovich</i>	
Методическая модель контекстуального обучения в формировании лингвокультурной компетенции при обучении русскому языку в национальных группах	213
<i>Рустамова Ферузaxon Махмуджановна</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	Integrating Artificial Intelligence into EFL Academic Writing Instruction: Opportunities, Challenges, and Pedagogical Implications..... 218 Allamurodov Elyor Tursun ugli	218
	Sahna nutqida adabiy tur va janrlarning metodik talqini..... 223 Dilrabo Jumanova	223
	Sun'iy intellekt asosidagi ta'lim ekotizimi: imkoniyatlar va xavflar 227 Oqil Ochilov Lutfullo o'g'li	227
	Z avlod bilan ishlashda ta'lim va tarbiyaga oid zamonaviy tendensiyalar 232 Ravshanov Sanjar Tolibjonovich	232
	Talabalarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida diagnostik metodlardan samarali foydalanishning ahamiyati... 235 Saotmuratova Zebo Yuldash qizi	235
	Tarixiy-ilmiy materiallar va zamonaviy texnologiyalar integratsiyasi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining geometrik tafakkurini rivojlantirish metodikasi..... 239 Toshpulatova Mamura Ismailovna, Mannonova Dilafro'z Ravshan qizi	239
	Davlat-xususiy sherikchilik asosidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish va muvofiqlashtirish ... 244 Xakimov Abdug'ulom Soyibjonovich	244
	Ingliz tilini boshqa sohadagilarga o'qitishda grammatik jihatlar 247 Ataboyeva Guliruxsor Baxtiyor qizi	247
	Methodological Foundations for Developing Environmental Education Through the Integration of Climate Change Education Into Biology Lessons in General Secondary Schools..... 250 Abdurakhmanova Iqbolkhon Yulchiyevna	250
	Sharq va G'arb mutafakkir olimlarining oila va farzand tarbiyasi borasidagi qarashlari 255 Berdiyeva Dilnoza A'zamovna	255
	Ommaviy sport turlari yordamida ayollarni sog'lom turmush tarziga yo'naltirishda ilmiy yondashuv 258 Charos Axmadova	258
	STEAM integratsiyasi orqali maktab o'quvchilarida tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish 262 Choriyor Maxmatraimov Eshmamatovich	262
	Maktabgacha ta'lim kafedrasida bo'lajak tarbiyachilarni innovatsion-metodik faoliyatga tayyorlashni transformatsion boshqarish texnologiyasi 267 Djalalov Baxromjan Begmurzayevich	267
	Raqamli transformatsiya sharoitida yosh ota-onalarda yolg'izlik hissining namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik va etnopsixologik omillar 272 Erimmetova Nafisa Bahromovna	272
	Zamonaviy ta'lim muhitida talabalarning ijtimoiy-psixologik adaptatsiyasi va uning strategiyalari 279 Haqberdiyeva Dinora Qobil qizi	279
	Maktab direktorlarining moliyaviy boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish tehnologiyalari..... 283 Karimov Jaxongir Abdunabiyevich	283
	Jadidlar merosiga e'tibor: tarixiy xotira va ma'naviy tiklanish omili..... 287 Madaminova Shaxodat Shomurotovna	287
	Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'limdagi o'rni va nutqni baholashdagi imkoniyatlari..... 293 Mahmudova Maftuna Aktam qizi	293
	Effectiveness of Simulator Technologies in Pilot Training: an Experimental Study 297 Maksudov Ilhomjon Turgunboy o'g'li	297
	Yangi O'zbekistonda o'qituvchi maqomining huquqiy kafolatlari va pedagogik faoliyat samaradorligi..... 301 Menlibayeva Azima Oralbayevna, Oralbayeva Aziza	301
	Raqamli jamiyat sharoitida ong transformatsiyasining falsafiy jihatlari..... 305 Muxitdin Nazarov	305
	10-11-sinf o'quvchilarida o'qishdan yozuvga o'tish ko'nikmasini rivojlantirishning bosqichli metodik tizimi ... 310 Nazarova Shoiraxon Abdumo'min qizi	310
	Zamonaviy ta'lim paradigmasida "potensial" tushunchasi: shaxsning rivojlanishga qaratilgan ichki imkoniyatlari, bilim, ko'nikma, qobiliyat va kompetensiya..... 314 Qurbonova Gulmira Alisher qizi	314



Deffenbacherning driving anger scale metodi asosida haydovchilarning agressiv xulq-atvorining psixologik xususiyatlarini jinslar kesimida o'rganish	318
<i>Rahim Usmonov Raxmonali o'g'li</i>	
Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	323
<i>Sadoqat Sarmanova Shermahmatovna</i>	
Vizual axborot: paydo bo'lish tarixi, qo'llanish sohalari va ta'lim jarayonidagi ahamiyati.....	328
<i>To'g'izboyev Faxriddin Ulashovich</i>	
Fizika darslarini tashkil etishning mazmuni, mohiyati va didaktik tamoyillari.....	334
<i>Turabova Lobar Xusen qizi</i>	
Ekstrakorporal urug'lantirish orqali tug'ilgan bolalarda xotiraning rivojlanishi	339
<i>Usmonova Xusnora Ergashovna</i>	
Raqamli ta'lim muhitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining emotsional barqarorligini shakllantirish.....	344
<i>Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna</i>	
Milliy va xalq o'yinlari vositasida talabalarni sog'lomlashtirish.....	347
<i>Axmedov Gayratjon Kosimovich</i>	
Деонтология медицинского персонала: этико-профессиональные ориентиры в условиях современной медицины.....	350
<i>Бабаджанова Гулчехра</i>	
Формирование творческого восприятия учащихся на уроках музыки.....	355
<i>Габдульманова Ильнура Минисламовна</i>	
Qizlar tarbiyasida maktab va mahalla hamkorligi monitoring tizimini takomillashtirishning pedagogik asoslari.....	358
<i>Abdurazoqova Marg'uba Muxammad qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tarbiyachilarida iqtisodiy tushunchalarni shakllantirish pedagogik muammo sifatida	362
<i>Ergashova Dilafro'z</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy karyerani shakllantirishning metodologik asoslari	365
<i>Hayitova Sarvinov Mahmudovna, Ilmiy rahbar: Ashirova Sojida Baxromovna</i>	
Pedagogical and Methodological Foundations for Developing an Interactive Mobile Application for Teaching English to Preschool Children (Based on the Solobee Project).....	368
<i>Khurshida Kuchkarova</i>	
O'spirinlarda kiberbullingning profilaktikasi va psixokorreksion imkoniyatlari.....	373
<i>Ibodova Gulimehr Inoyat qizi</i>	
Pedagogical Factors and Didactic Conditions for Developing Communicative Competence in Future Teachers.....	378
<i>Mirzayeva Gulshan Azamatovna</i>	
Musiq ta'limida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari.....	382
<i>Altmisheva Maftunabonu Baxtiyor qizi</i>	
The Importance of the Concept of Discursive Competence in Teaching English.....	386
<i>Mukhamatjonova Diyora Rustam qizi</i>	
Koxlear implantli bolalarni ta'lim jarayoniga moslashtirishning korreksion-pedagogik asoslari.....	390
<i>Najimova Muhabbat</i>	
Alfa avlod uchun internet xavflari klassifikatsiyasi metodlarini ishlab chiqish klassifikatori	393
<i>Ahralov Shavkat Sulaymonovich, Ahrorova Sevara Sulaymon qizi</i>	
Aqli zaif o'quvchilar ta'limida sensor integratsiyaning pedagogik imkoniyatlari.....	398
<i>Tajibayeva Shaxnoza Abdumuxtorovna</i>	
Koxlear implantatsiyali o'quvchilarning psixologik-pedagogik rehabilitatsiyasi samaradorligini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish.....	401
<i>Yuldasheva Saodat Utkurovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy pedagogik fikr-g'oyalardan kreativ foydalanishga tayyorlashning ustuvor tamoyillari.....	406
<i>Akbarova Feruza Uktamjonovna</i>	



Biologiya ta'lim bosqichida noan'anaviy integratsiyalashgan darslar jarayonida CLIL texnologiyfsini joriy etish	410
Azimov Ibragimjon Toshpulatovich, Toshpo'latova Nigina Ibrohimjon qizi	
Onlayn ta'lim muhitida didaktik kompetensiyani takomillashtirish yo'llari	416
Kushimova Mahbuba Janibekovna	
Inklyuziv ta'lim sharoitida koxlear implantga ega bolalarning eshituv-nutqiy faoliyatini tashkil etishning pedagogik asoslari.....	420
Mirzayeva Umidaxon Inamovna	
Bo'lajak o'qituvchilarni inklyuziv ta'limga tayyorlashda pedagogik shart-sharoitlar va tamoyillar tizimi.....	423
Omanqulova Shohida Nematillo qizi	
Talabalarda axborot-psixologik tahdidlarni oldini olishning psixologik imkoniyatlari.....	426
Ramazonov Jahongir Djalolovich	
Changes in the Structure and Strength of the Aluminum Alloys SAV-1 Irradiated With Fast Neutrons	431
S. A. Baytelesov, F. R. Kungurov, G. N. Turdieva, I. V. Papushki, A.V. Galushko	
Bo'lajak o'qituvchilarning mantiqiy fikrlash kompetensiyasini baholashga diagnostik model asosida yondashuv.....	438
Suvankulova Malika Baxtiyor qizi	
"Integratsion mexanizm" – integratsiyani tadqiq etishdagi muhim yo'nalish sifatida	444
Xayitov Lazizbek Rustamjon o'g'li	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talaba qizlarining somatotipik va funksional xususiyatlariga ko'ra tabaqalashtirilgan individual fitnes mashg'ulotlari uslubiyati.....	447
Ziyatov Muhammad Namazovich	
Проблемы формирования координационных способностей у дошкольников с нарушением слуха и рекомендации по их развитию	451
Закирова Сарвиноз Баратовна, Кобулова Шахризода Равшан кизи	
Uy ta'limi sharoitida o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari.....	455
Sodiqova Nurgul Tursunboyevna	
Paradzyudoni rivojlantirishning dolzarb muammolari va ularni takomillashtirish yo'llari.....	459
Berdiyev Sherzod Ochilovich	
Pedagogik antropologiya Ushinskiy talqinida	462
Ochilova M. P.	
Using Concept Checking Questions to Improve Vocabulary Retention in English Language Classrooms: Evidence from Uzbekistan	468
Ramazonov Jasurbek Safar O'g'li	

“INTEGRATSION MEXANIZM” – INTEGRATSIYANI TADQIQ ETISHDAGI MUHIM YO‘NALISH SIFATIDA

Xayitov Lazizbek Rustamjon o‘g‘li

Qo‘qon davlat universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada integratsion mexanizmlarning zamonaviy iqtisodiy integratsiya jarayonlarini o‘rganishdagi nazariy va amaliy ahamiyati tahlil qilingan. Globallashuv sharoitida iqtisodiy integratsiya jarayonlari tobora murakkablashib bormoqda. Integratsion mexanizmlarni chuqur o‘rganish milliy iqtisodiyotlarning xalqaro hamkorlikdagi samaradorligini oshirish uchun zarurdir.

Kalit so‘zlar: integratsion mexanizm, iqtisodiy integratsiya, mintaqaviy hamkorlik, globallashuv, xalqaro iqtisodiy munosabatlar, integratsiya nazariyasi, iqtisodiy samaradorlik.

Abstract: This article analyzes the theoretical and practical significance of integration mechanisms in the study of modern economic integration processes. In the context of globalization, economic integration processes are becoming increasingly complex. An in-depth study of integration mechanisms is necessary to increase the effectiveness of national economies in international cooperation.

Key words: integration mechanism, economic integration, regional cooperation, globalization, international economic relations, integration theory, economic efficiency.

Аннотация: В статье анализируется теоретическое и практическое значение интеграционных механизмов в изучении современных экономических интеграционных процессов. В условиях глобализации экономические интеграционные процессы становятся всё более сложными. Углублённое изучение интеграционных механизмов необходимо для повышения эффективности национальных экономик в международном сотрудничестве.

Ключевые слова: интеграционный механизм, экономическая интеграция, региональное сотрудничество, глобализация, международные экономические отношения, теория интеграции, экономическая эффективность.

KIRISH

Jamiyatdagi integratsiya jarayonida integratsiya tushunchasini alohida elementlarni yig‘ib, ularni birlashtirish va yaxlit holga keltirish jarayoni sifatida tushunish mumkin. Shuningdek, ko‘plab olim va metodistlar integratsiya muammosining mazmun-mohiyatini aniqlash bo‘yicha o‘z fikrlarini bildirganlar. Hozirgi kunda “integratsiya” tushunchasining aniq ta‘rifi metodik adabiyotlarda ushbu muammo bilan shug‘ullangan olimlar tomonidan bir-biriga yaqin mazmundagi ta‘riflarda berilgan.

Ta‘limni integratsiyalashning asosiy maqsadi boshlang‘ich maktabdayoq tabiat va jamiyat haqida yaxlit tasavvur asoslarini shakllantirish hamda ularning rivojlanish qonuniyatlariga nisbatan munosabatni tarkib top-tirishdir. Bu jarayonda oliy ta‘lim tashkilotlarida fanlararo aloqadorlikni tizimli tarzda amalga oshirish natijasida o‘quv-tarbiya jarayonining samaradorligi sezilarli darajada ortadi. O‘quvchilarda dialektik fikrlash ko‘nikmalari shakllanadi. Shu bilan bir qatorda, bu o‘quv fanlariga oid bilim va qiziqishlarni rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi^[1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Integrativ ta‘lim jarayonlarining zamonaviy holati bilimlarning yangi ilmiy sohalarini yuzaga kelishi bilan tavsiflanadi. Bular qatoriga sinergetika, kibernetika va informatika kabi fanlar kiradi. Ularning asosiy yutuqlariga, G. M. Dobrov ta‘kidlaganidek, “ilmiy jarayonning yagona kibernetik konsepsiyasining rivojlanishi, fanning jadal rivojlanish qonuniyatlarini amaliyotga joriy etish va uning tizimlilikini ta‘minlash”, shuningdek, fanlarning zamonaviy tasniflarini aniqlash kiradi. Qator mualliflarning fikriga ko‘ra, integratsiya tushunchasi “umumilmiy xususiyatga ega bo‘lib, tuzilma, model, tizim va boshqa umumilmiy tushunchalar bilan bir qatorda turadi. Inte-



gratsiya tushunchasi borliqning universal munosabatlarining muayyan turini ma'naviy-amaliy o'zlashtirish doirasidagi tushunchadir" [2].

Integrativ jarayonlarni muhim obyektiv qonuniyat deb hisoblagan mualliflar ta'lim mazmuni tuzilmasini muayyan tarzda qayta tashkil etish zaruratini asoslab berganlar. Bunda integrativ samaraning yuzaga kelishiga xizmat qiluvchi didaktik va metodik asoslarni ishlab chiqish, o'qitish shakl va metodlarini aniqlashga alohida urg'u beriladi. Ta'limning tor predmetli yo'nalishga asoslangan mavjud tizimi ta'lim mazmuni integratsiyasini to'liq amalga oshirish imkonini bermaydi.

Integratsiya tabiat qonunlarining umumiyliigi va yagonaligi hamda subyektning atrofidagi olamni yaxlit idrok etishi asosida ta'lim mazmunini tashkil etishning yetakchi shakli sifatida xizmat qiladi. Masalan, G. A. Monaxova integratsiyaga oid beshta yondashuvni ajratib ko'rsatgan: tarixiy, ijtimoiy, shaxsiy, antropologik va madaniyatshunoslik. Bunday tasnifning asosida tizim hosil qiluvchi omilni ajratish yotadi. Masalan, antropologik yondashuvda butun o'quv jarayoni ijtimoiy va siyosiy arboblarining biografialarini o'rganish asosida quriladi; ijtimoiy yondashuvda material uning kundalik hayotdagi foydaliligini hisobga olib tanlanadi; tarixiy yondashuvda esa predmetga oid bilimlar xronologik jihatdan boyitiladi. Ta'lim tizimining tor fan sohalarida integrativ jarayonlarga yondashuv asosan bilimlar tuzilishini belgilovchi "yetakchi tushunchalar", "maqsadli bilimlar", "tushunchalar majmui", "vazifalar to'plami" kabi ichki tuzilmalarni ajratish orqali amalga oshiriladi. Integratsiyani tadqiq etishdagi muhim yo'nalishlardan biri "integratsion mexanizm"ni ishlab chiqish hisoblanadi.

A. Y. Danilyuk integratsion mexanizmlarning to'rtta turini ajratadi: metatil, mazmun aksentuatsiyasi, xulq qoidalarini belgilash va o'quv tillarining kreolizatsiyasi. Sanab o'tilgan mexanizmlar orasida muallif metatilni eng muhim mexanizm deb hisoblaydi. Metatil "ikkita turli tilni yagona til sifatida tavsiflab, butun tizimni muayyan umumiylik sifatida subyektiv nuqtayi nazardan idrok etishga majbur etadi" [3].

Mazmun aksentuatsiyasi – ba'zi elementlarni chiqarib tashlash va o'qitish mazmuniga boshqalarini jalb etish – qat'iy mavzuga muvofiq amalga oshiriladi hamda mazmuniy yaxlitlik va mahsuldorlikni ta'minlashning zarur sharti hisoblanadi. O'quv tillarining kreolizatsiyasini muallif o'qituvchi tili va ta'lim oluvchi tilining asta-sekin va izchil o'zaro singib borishi sifatida tushuntiradi. Ta'lim oluvchining ongi asta-sekin pedagogning integratsiyalashgan kasbiy tafakkuri darajasiga yetadi. Nihoyat, xulq qoidalarini belgilash butun o'qitish mazmunini ta'lim oluvchiga tushunarli bo'lgan muayyan izchillik asosida qurishga imkon beradi [4]. Oxirgi ikki mexanizm (kreolizatsiya va qoidalarini belgilash)ning o'zidan ko'ra ko'proq uning o'qituvchi va tashkil etuvchi funksiyalarini ajratish mumkin. Aksentuatsiya va metatil ixtiyoriy "o'qitish integratsion mexanizmi"ning ikki farqli jihati hisoblanadi [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ta'lim mazmuni integratsiyasini bir necha turlarga ajratish mumkin.

- *Birinchi tur* bir o'qitish turkumidagi bir nechta fanlarni birlashtiruvchi kursni yaratishni nazarda tutadi.
- *Ikkinchi tur* o'qitish fani mantiqi va bilish jarayonining rivojlanishi bilan belgilanadigan mavzularni izchil o'rganish bilan tavsiflanadi.
- *Uchinchi tur* esa ijtimoiy ahamiyatga ega muammolar va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari doirasida bilimlarni guruhlash bilan tavsiflanadi.

Ilmiy bilimlar integratsiyasi va o'qitish jarayoni integratsiyasi tushunchalariga oid turli yondashuvlarning tahlilidan kelib chiqib, biz integrativ o'qitish tushunchasini tavsiflovchi qator muhim xususiyatlarni ifodalash zarurligini aniqladik [4] (1-jadvalga qarang).

1-jadval: Integrativ o'qitish tushunchasini tavsiflovchi ahamiyatli xususiyatlar

No	Integrativ o'qitish tushunchasini tavsiflovchi ahamiyatli xususiyatlar
1.	Integrativlik ixtiyoriy o'qitish jarayoniga xos, chunki o'qitish jarayoni bilish jarayoni shakllaridan biri hisoblanadi. Integrativlik – o'qitish xususiyati va funksiyasidir
2.	O'qitish jarayonining integrativ tomonini ajratishga ta'lim mazmunining "aksentuatsiyasi" hisobiga erishiladi
3.	Aksentuatsiya ikki yo'nalishlarda – o'qitish jarayoni shakli bo'yicha va mazmuni bo'yicha amalga oshirilishi mumkin
4.	O'qitish jarayonining integrativ funksiyasini kiritishga o'qitishda integratsiyaning maxsus tilini – metatilni joriy etish hisobiga erishiladi. Integratsiya metatilining asosiy funksiyasi – tashkiliy hisoblanadi
5.	Metatil yagona asos – tizim hosil qiluvchi xususiyatga egadir
6.	Metatil o'qitish jarayonining tomonlaridan biri sifatida integratsiya tuzilmasiga mos bo'lgan o'z tuzilmasiga egadir

TAHLIL VA NATIJALAR

Integratsiyaning metodologik funksiyalari qatoriga pedagogikadagi integratsiyaning umumilmiy tushunchasini aniqlashtirish hamda o'qitishda turli integratsion jarayonlarni rivojlantirish funksiyalarini kiritish mumkin. Demak, bilimlarni birlashtirishning yuqori darajasi bilan ifodalanuvchi integrativ o'qitish o'qitish va o'qishni

tashkil etuvchi komponentlarning ichki umumiyligi asosida ularning o'zaro aloqadorligini ta'minlaydigan maxsus tashkil etilgan jarayon bo'lib, o'qitish jarayoniga joriy etilishi orqali ichki umumiylikka erishiladi. Tamoyillar majmui doimiy hisoblanmaydi, chunki ular ijtimoiy jarayonlar bilan chambarchas bog'liqdir. Ilg'or pedagogik tajriba va pedagogika fani ta'siri ostida ular yangi mazmun bilan boyitiladi, takomillashadi va o'zgaradi. Tamoyillar ta'lim jarayonini tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois quyida o'qitishni tashkil etishning integrativ tamoyillariga to'xtalib o'tamiz. Tamoyillar qonunlarga asoslanadi va ta'lim hamda tarbiya maqsadlari, muhit sharoitlari, amaliyot hamda o'qitish tajribasi bilan bog'liqdir. Pedagogik tizim modeli sifatida qaraladigan surdopedagoglarni o'qitishning didaktik tizimi asosida o'qitish tamoyillari yotadi. O'qitishning har bir modeli tamoyillar tizimi, ya'ni "didaktik jarayonni tashkil etish va o'tkazishdagi asosiy g'oyalar hamda me'yoriy talablar" bilan ifodalanadi. Ular o'qitish jarayonini tartibga soluvchi umumiy ko'rsatmalar, qoidalar va me'yorlar xususiyatiga ega bo'ladi.

Ko'pgina tadqiqotchilar o'qitish tamoyillari bilan xususiy metodik ko'rsatmalar, shuningdek, o'qitish tamoyillari bilan qonuniyatlar o'rtasidagi chegarani farqlash zarurligini ta'kidlaydilar. Yaxlit o'qitish jarayonining muayyan bosqichini tavsiflovchi o'qitish modelini qurish zarurati ushbu bosqich darajasida umumdidaktik tamoyillarni aniqlashtirish ehtiyojini yuzaga keltiradi. Y. K. Babanskiy fikricha, ular "ko'p yillik tajribaning umumlashgan ifodasi hisoblanadi va o'qitish jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga oladi". Bo'lajak surdopedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish samaradorligi o'qitish jarayonining mantiqiy tuzilmasini aniqlashning invariant modeli hamda o'qitish jarayonining uzluksizligi va uzviyligini ta'minlashga qaratilgan shakl va mazmunni rivojlantiruvchi ta'lim maqsadlariga muvofiq belgilash asosida takomillashtiriladi. V. I. Zagvyazinskiyning fikriga ko'ra, tamoyillar – bu faoliyat kategoriyalarida ifodalangan instrumentallik, pedagogik konsepsiyaning amaliy ko'rinishi, faoliyat me'yorlari, amaliyot uchun tartibga soluvchi vosita sifatida namoyon bo'ladigan o'qitish mohiyati, mazmuni, tuzilmasi hamda uning qonun va qonuniyatlari to'g'risidagi bilimlardir [5, 6].

Integrativ yondashuv asosida bo'lajak surdopedagoglarni o'qitishning didaktik tizimi tamoyillarining integratsiyalovchi funksiyasini ajratish zarur. Bunda integratsiyalovchi funksiyalarning yangiligi "Maxsus pedagogika" ta'lim yo'nalishida o'qitishning didaktik tizimiga yangi toifalar va tamoyillarni kiritishda emas, balki mavjud tamoyillar o'rtasidagi tizim hosil qiluvchi aloqalarni aniqlash va ulardan yanada samarali foydalanish sharoitlarini asoslashda namoyon bo'ladi. Oliy ta'limdagi mavjud didaktik tizimlarning o'qitish tamoyillari ushbu o'qitish jarayonining maxsus vazifalari va sharoitlariga nisbatan umumdidaktik tamoyillarni amalga oshirish shakli ekanligini ko'rsatadi. Umumdidaktik tamoyillar o'zining invariant xususiyatini saqlagan holda aniq mazmun bilan boyitiladi va pedagogik jarayonni qurish texnologiyasini belgilab beradi.

XULOSA

Integratsion mexanizm integratsiya jarayonlarini chuqur anglash, ularning mazmuni va tuzilishini belgilashda muhim nazariy-metodologik asoslardan biri hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim va ijtimoiy jarayonlarda integratsiya alohida elementlarni oddiy birlashtirish emas, balki ular o'rtasidagi mazmuniy, mantiqiy va funksional aloqalarni shakllantirish orqali yaxlit tizim yaratish jarayoni sifatida namoyon bo'ladi. Integratsion yondashuv asosida ta'lim mazmunini tashkil etish o'quv jarayonining samaradorligini oshirish, fanlararo bog'liqlikni ta'minlash hamda ta'lim oluvchilarda tizimli va kompleks fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini beradi. Ayniqsa, globallashuv va zamonaviy ilmiy taraqqiyot sharoitida turli bilim sohalarining o'zaro uyg'unlashuvi yangi bilimlarni egallash va amaliy faoliyatga tatbiq etishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Integratsiyani amalga oshirish mexanizmlari orasida metatil, mazmun aksentuatsiyasi, xulq qoidalarini belgilash va o'quv tillarining kreolizatsiyasi kabi yondashuvlar alohida ahamiyatga ega. Mazkur mexanizmlar orqali turli fanlar mazmuni o'zaro bog'lanadi, umumiy tushunchalar tizimi shakllanadi va ta'lim jarayonining yaxlitligi ta'minlanadi. Shuningdek, integrativ o'qitish jarayoni uzluksizlik, tizimlilik, ilmiylik va mustaqillik kabi didaktik tamoyillar asosida rivojlanadi. Ushbu tamoyillar ta'lim mazmunini tartibga solish, o'qituvchi va ta'lim oluvchi faoliyatining samarali hamkorligini tashkil etish hamda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qilichova M. Ta'lim-tarbiya jarayoniga integratsion yondashuvning mazmuni // Academic Research in Educational Sciences. – 2021. – Vol. 2, Issue 10. – B. 917–921.
2. Кузнецов А. А. Требования к знаниям и умениям школьников: дидактико-методический анализ. – М.: Педагогика, 1987. – 176 с.
3. Данилюк А. Я. Учебный предмет как целостная система // Педагогический журнал. – 1997. – № 4. – С. 24–28.
4. Самсиков С. А. Интегративный подход к подготовке учителей начальных классов (логический аспект): дис. ... канд. пед. наук. – Рязань, 2000. – 212 с.
5. Загвязинский В. И. Методология и методика дидактического исследования. – М.: Педагогика, 1982. – 160 с.
6. Загвязинский В. И. Педагогическое творчество учителя. – М.: Педагогика, 1987. – 160 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(6)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.